

QO'SHMA GAP QOLIPLI FRAZEMALAR STRUKTURASI

Rahmatova Yulduz Shahobovna

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22790731>

Annotatsiya. Qo'shma gap qolipli frazemalarning gap tarkibida turli sintaktik vazifalarda kelishi, ushbu frazemalardagi variantlashish xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: sintaktik tuzilish, qo'shma gap qolipli frazema, morfologik omil, variantlashish.

Abstract. The article discusses the functioning of phraseological units modeled on complex sentences in various syntactic functions within a sentence, as well as the issue of variation in these phraseological units.

Keywords: syntactic structure, phraseological unit modeled on a complex sentence, morphological factor, variation.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы функционирования фразем с моделью сложного предложения в различных синтаксических функциях в составе предложения, а также особенности варьирования данных фразем.

Ключевые слова: синтаксическая структура, фразема с моделью сложного предложения, морфологический фактор, варьирование.

Ma'lumki, sintaktik tuzilishiga ko'ra gap qolipli frazemalar sodda gap qolipli hamda qo'shma gap qolipli frazemalar tipida bo'ladi. Qo'shma gap qolipli frazemalar gap tarkibida qo'llanganda, gapning semantik tayanch a'zosiga aylanadi: *Yerga ura ko'kka sachraydigan ajoyib tabiatli Cho'l burguti bilan uchrashishga oshiqdim.* (S.Ahmad, Cho'l burguti). Agar ushbu misoldagi frazemani *Yerga ura, ko'kka sapchidi* tarzida alohida olib qaraydigan bo'lsak, u holda frazema sintaktik yasallishida -sa (ura) affiksi muhimligini ko'ramiz. Mazkur affiks nafaqat ushbu qo'shma gap qolipli frazema tarkibida boshqa frazemalarda ham kuzatiladi. Bunday

xususiyat qo'shma gap qolipida keluvchi *Dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi; sallani ol desa, kallani olmoq, tegirmonga tashlasa, butun chiqadi* kabi frazemalarda ham -sa shart mayli affiksi sintaktik bog'lanishni yuzaga keltiruvchi morfologik omil vazifasini ham bajaradi. Bu kabi frazemalarning ayrimlarida birinchi qismda *demoq* fe'li -sa shart maylini olgan holda keladi: *Ali desa, Vali demoq, dard desa, balo demoq, u desa, bu demoq, o'l desa-o'lmoq, tiril desa – tirilmoq* kabi. Ushbu affiks yordamida qo'shma gap xarakterli ibora tarkibiy qismlarining umumiy holda voqelikka munosabat bildirishi shakllanadi. Biroq mazkur frazemalar nutq doirasida qo'llanganda aksariyat hollarda kesim, hol va to'ldiruvchi, aniqlovchi kabi gap bo'laklari vazifasida keladi. Yuqorida keltirilgan *Yerga ura ko'kka sachraydigan ajoyib tabiatli Cho'l burguti bilan uchrashishga oshiqdim*. (S.Ahmad, Cho'l burguti) misolida frazema aniqlovchi vazifasida kelgan.

“Фразеологик иборалар деривацион хусусиятларини тадқиқ этишда шунга аҳамият бериш лозимки, бу ўринда фақат синтактик деривация эмас, балки семантик деривация ҳам муҳим аҳамият касб этади. Бу нарса тил ички тизимининг эҳтиёжи билан ҳам боғланади.”²⁰ Qo'shma gap qolipidagi frazemalar gap bo'lagi vazifasida kelganda, frazema ishtirok etayotgan jumlaning predikativlik belgisi yoki derivatsion xususiyatlari ustuvor ahamiyat kasb etib, frazema mazkur jumlaning tarkibiy qismi sifatida faollik ko'rsatadi. Ushbu frazema lug'atda “o'taketgan sho'x, o'taketgan betinim”²¹ deb izohlangan bo'lib, o'ta sho'x, tinib-tinchimasligi nuqtai nazaridan, asosan, yosh bolalarga nisbatan qo'llanadi., ko'p hollarda o'g'il bolalarga nisbat beriladi. Frazemaning *yerga ura, ko'kka sachraydi/ yerga ursang, osmonga sapchidi / yerga ura, bulutga sakraydi* kabi variantlari mavjud. Tegirmonga tashlasa, butun chiqadi frazemasini ham qo'shma gap qolipli bo'lib, ushbu frazemaning ma'nodoshi sanaladi. Shuningdek, ushbu qo'shma gap qolipli frazemaning soddaga gap qolipli variantlari ham mavjuddir: *yer-u ko'kka sig'maydi/er-u ko'kda turmaydi /er-u osmonni silkitadi* kabi. Tepsa, tebranmas

²⁰ Shodiyev S.E. Qo'shma gap qolipli frazemalarning derivatsion tamoyillari va tahlili // *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*. 2024-11-09. <https://doi.org/10.2024/zmnay826> -B.65.

²¹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. -Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. – B.82.

qo'shma gap qolipli frazema bilan antonimik munosabatdadir. Quyidagi misollarda nutqning turli uslublarida ushbu frazemaning turli variantdoshlari keltirilgan: 1.*Men yetti-sakkiz yoshli, yerga ursa, ko'kka sapchiydigan, o'yindan boshqa o'yi bo'lmagan bolakay edim.* (S.Tursunov. Qaytmas yillar bahori. O'zbekiston adabiyoti va san'ati.2013,29-mart). 2.*Erga ursa ko'kka sakragan shahdli, Tuyg'usi asov bebosh bo'lgan edim.* (O'.Samarqandiy, Yoshlik sog'inchi). 3.*Sho'x, yerga ursa, bulutga sakraydigan, haqqa bo'yin egib, nohaqqa sakrab ketadigan Sarsenboyning or-nomusi zo'r edi.* (R.Fayziy, Xazrati inson).

Sintaktik qurilishi qo'shma gapga teng ushbu frazema kesim vazifasida kelib ega bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanadi: *Karim yerga ursa, ko'kka sapchiydigan bola.* Bunday frazemalarda, o'z-o'zidan ega bilan birikish imkoni mavjud, chunki kesimlikni namoyon qilgan tarzda bog'lanish imkoniyati frazemaning qurilishida namoyon bo'lgan. Sodda gap qolipli frazemalarda ega bilan bog'lanish mavjud emas, chunki sodda gap qolipli frazemaning sintaktik qurilishi ega+esim qurilishidan tarkib topgan bo'ladi, ya'ni frazemaning o'z tarkibida namoyon bo'lgan bo'ladi: *aqli shoshdi, ko'zi tindi, boshi xam bo'ldi, ko'ngli ochiq, og'zi bo'sh* kabi.

Murakkab tuzilishli frazemalarning hammasiga nisbatan ham qo'shma gap qolipli deb bo'lmaydi, masalan, *yotib qolguncha otib qolmoq; parti ketib, sharti qolmoq; bir gapirib o'n kulmoq* kabi. "Fe'l sintaktik-semantik bog'lashuv turlarini o'zida to'liq aks ettiradigan turkumi bo'lib, bu xususiyat, fe'l leksemalar bilan bir qatorda, fe'l frazemalarga ham mansub. Tarkibida birdan ortiq leksemaing qatnashishi frazemalarning sintaktik-semantik bog'lashuvida ma'lum o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Bundan qat'i nazar, fe'l leksemalarda ham, fel frazemalarda ham sintaktik-semantik bog'lashuv asosida bir umumiy qonuniyat yotadi."²²

Fe'l leksemalar qo'shma gap qolipli frazemalarni shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Bunda komponent sifatida nafaqat fe'l, balki grammatik shakllar ham ishtirok etadi. Fe'l leksemalar frazemalar tarkibida fe'lga xos bo'lgan ayrim

²² Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. -Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. – B.118-119.

xususiyatlarini saqlab qoladi. Masalan, "demoq" fe'li qo'shma gap frazemalar tarkibida *uyushtiruvchi, birlashtiruvchi markaz* bo'lib xizmat qiladi: *Ali desa, Vali demoq; dard desa, balo demoq; a desa, be demoq; o'tirsa-o'poq, tursa-so'poq demoq* va b. Shuningdek, "olmoq" fe'li ham qo'shma gap frazemalar tarkibida *uyushtiruvchi, birlashtiruvchi markaz* bo'lib xizmat qiladi: *Salla ol desa, kalla olmoq; do'ppini ol desa, boshini olmoq; do'ppini ol desa, oyoq-qo'lni olmoq* kabi.

Salla ol desa, kalla olmoq; do'ppini ol desa, boshini olmoq; bo'rk ol desa, bosh oladi kabilarda frazeologik variantlashish yuz bergan bo'lib, asosan, umumtil frazemalari asosida yuzaga keladi va ular ma'lum bir komponentning almashinishiga asoslanadi yoki tilda mavjud bo'lgan frazemalardan o'sib chiqqan bo'ladi. Yuqoridagi misollarda esa frazemaning birinchi qismida bosh kiyimi sanaluvchi *salla, do'ppi, bo'rk* so'zlari almashingan, ikkinchi qismida *kalla, bosh* sinonimlari almashingan. Frazeologik variantlanish umumtil frazemalari asosida yangi variantlarining yuzaga kelishiga asos bo'ladi. O'zbek tili frazemalarida variantlashish mahsuldor bo'lib, ko'pgina frazemalar o'z variantiga ega.

Frazeologik variantlashish quyidagicha yuz beradi: "a) turli-tuman o'zgarishlar sababli biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'lishi, barchasi bir manbaga birlashuvi; b) asosida ayni bir obrazning yotishi; v) ayni bir lug'aviy ma'noni anglatishi; g) o'zaro o'sib chiqqan variantlar tarkibida mushtarak so'z-komponentning bo'lishi asosga olinadi"²³. Til leksik zaxirasi frazeologik variantlashiish asosida ham boyiydi.

Demak, frazeologik variantlar asos frazemalarning bir ko'rinishi bo'lib, semantikasi, uslubiyati va sintaktik vazifalariga ko'ra aynan o'xshash, leksik tarkibida qisman o'zgarishi bo'lgan, ayni bir obraz asosida yotuvchi til birligidir. Davr o'tishi natijasida inson qarashlarining o'zgarishi, o'sish-o'zgarishlar variantlashish yuz berishiga sabab bo'ladi va asos frazemaning ayrim

²³ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. -Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. - 10 b.

komponentlarida o'zgarish vujudga keladi. Aslida frazemalarning istalgan o'rinda joylashgan komponenti variantlashishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodiyev S.E. Qo'shma gap qoliqli frazemalarning derivatsion tamoyillari va tahlili // *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*. – 2024. – 9 noyabr.
2. Rahmatullayev Sh. *O'zbek tilining frazeologik lug'ati*. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992.